

YETUKLIK DAVRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xusanov Samariddin Maxmadaminovich

Kalit soʻzlar: yetuklik davrining bosqichlari, yetuklik haqida tadqiqot olib borgan psixologlar, oʻzlikni anglash, yetuklik davri qonuniyatlari, yetuklik davrida odam kuch-quvvati, qobiliyati.

Ключевые слова: этапы периода зрелости, психологи, проводившие исследования зрелости, самосознания, законов периода зрелости, сил и способностей человека в период зрелости.

Yetuklik davri ancha murakkab davrdir, mazkur davrda shaxs ham jismoniy, ijtimoiy jihatdan yetuklikka yetgan, jamiyat fuqarosi hamda saylash huquqini qoʻlga kiritib boʻlgan boʻladi. Bularning barchasi ijtimoiy jihatdan voyaga yetish, turmushda oʻz oʻrnini topish, oʻz taqdirini oʻzi hal qilishi, yetuk shaxs sifatida ruhiyati va maʼnaviyatining rivoji uchun jamiki shart-sharoitlarni yaratadi. Shaxs ijtimoiy hayotda, oliy oʻquv yurti jamoasida, tengqurlari bilan shaxslararo munosabatlar davrasidagi, oʻqish va turmush sharoitidagi oʻzgarishlar taʼsiri ostida tarkib topa boshlaydi. Shaxsning mehnat faoliyatida taʼlim-tarbiya jarayonida aqliy va axloqiy jihatdan oʻsishida oʻziga xos oʻzgarishlar, yangi xislat va fazilatlar namoyon boʻlayotganligi koʻrsatiladi.

Yetuklik davrining kamol topishining birinchi bosqichiga 28-35 yoshlardagi erkak va ayollar kiradilar. Yetuklik davrida odam oʻzining barcha kuch-quvvati, qobiliyati, aql-zakovati, ichki imkoniyatlarini oʻz kasbiga, ijtimoiy faoliyatiga, jamoat ishlariga toʻla safarbar qila oladi. Erkak va ayollarning bu davrda mehnat va ijtimoiy faoliyatda muayyan tajribaga egaligi ularni istiqbol sari yetaklaydi.

Yetuklik davrining ikkinchi bosqichida qarilik alomatlari koʻproq oʻrin egallay boradi, uning boshlanish nuqtasi 45-50 yoshlardir, lekin odamlarning oʻziga xos xususiyatlariga koʻra chegara turlicha masalan, bu bir kishida 60 yoshda, boshqa birida esa 70 yoshda boʻlishi mumkin. Shu sababli yosh davrining chegaralari faqat shartli belgilanadi. Bu omil odamlar yashayotgan oila muhitiga tarixiy-ijtimoiy shart-sharoitiga, jugʻrofiy iqlim va hokazolarga ham bogʻliqdir.

Yetuklik davrining asosiy xususiyatlardan biri ijtimoiy yetuklikning jadal surʼat bilan roʻyobga chiqarishdir. Maʼlumki ijtimoiy yetuklik (kamolot) shaxsdan zarur aqliy qobiliyatini hamda ijtimoiy tuzishda bajariladigan turli rollarni egallash (oilalar qurishga), farzandlarni tarbiyalashga, foydali mehnatga qatnashishga (masʼul vazifada ishlashga) tayyorlanishini talab etadi. Mazkur jarayonning bosh mezonlari va koʻrsatkichlari oʻrta maʼlumotlilik koʻrsatish qonunlar oldida javobgarlik, mutaxassis boʻlish imkoniyati, unga intilish tuygʻusi, irodaviy zoʻr berish, yosh otalik va onalik burchi, jamoat arbobi

vazifasini o'tash, ijtimoiy guruhga rahbarlik qilish, sport bilan shug'ullanish, bo'sh vaqtni tashkil eta olish, to'garakda qatnashish va hokazolardan iboratdir.

Psixologlardan M.G. Davletshin, A.V. Dimitrieva, B.G. Ananyev, N.V. Kuznina, N.F. Talizina, V.Y. Lyandus, L.S. Kon, O.T. Lisovskiy, A.A. Badalov, A.V. Petrovskiy, I.I. Ilyasov, Z.F. Esarova, A.A. Verbitiskiy, V.A. Tokarova, E.G'.G'oziyev va boshqalarning tadqiqotlariga ko'ra yetuklik davrining boshlang'ich qismi insonlar uchun og'ir kechadi, chunki bu davrda shaxsning murakkab fazilatlarini xislatlari sifatleri takomillashish bosqichida bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Дубровина И.В. Возрастная и педагогическая психология. Хрестоматия / И.В. Дубровина, А.М. Прихожан, В.В. Зацепин. - М.: Академия, 2018. – 256 с.
2. Dodge K.A. (1993). Xulq-atvor va depressiyani rivojlanishidagi ijtimoiy-kognitiv mexanizmlar. Yillik psixologiya sharhi, 44, 559-584. doi: 10.1146 / annurev.ps.44.020193.003015.
3. Emelin VA, Txostov A. Sh., va Rasskazova EI (2014). Axborot-kommunikatsiya jamiyatidagi psixologik moslashuv: Texnologiyalar bilan bog'liq psixologik oqibatlar anketasining qayta ko'rib chiqilgan versiyasi. Rossiyadagi psixologiya: San'at holati, 8 (2), 105-120.
4. Garber J., Quiggle NL, Panak WF va Dodge KA (1992). Bola taraqqiyoti, 63 (6), (1992 yil dekabr), 1305-1320. doi: 10.2307 / 1131557
5. Gebel C., & Vütscher S. (2015). Ijtimoiy tarmoqlar vafot etganlar: Verteund Medienkompetenz Jugendlicher. Potenzialen der Medienarbeit mit Social Media ekspertizasi. Myunxen: JFF - Institut für Medienpädagogik in Forschung und Praxis.